



“O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari”  
aksiyadorlik jamiyati  
boshqaruvi raisining birinchi o'rinosbasari

S. Artikov

2023-yil 7.10

**“O'ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI”  
AKSIYADORLIK JAMIyatIDA O'TKAZILGAN  
Y I G' I L I SH B A Y O N I № 1**

2023-yil 7-sentabr

Toshkent sh.

Raislik etuvchi:

“O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari”  
aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining  
birinchi o'rinosbasari S. Artikov

Taklif etilganlar:

“INVESTMENT AND CAPITAL  
MANAGEMENT” MCHJ vakili G.P.Tursunov

Qatnashganlar:

Jamiyatining barcha bo'lim boshliqlari va  
xodimlari jami 130 kishi.

**KUN TARTIBIDA KO'RILGAN MASALA:**

O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-81-sun Qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6013-sun Farmoni va “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiya va unga qarshi kurashish usullari, Jamiyat komplayens-nazorat tizimini to'g'risidagi tushunchalar.

**Kun tartibidagi masala yuzasidan yig'ilishni Jamiyatni boshqaruvi raisining  
birinchi o'rinosbasari S. Artikov ochib, Jamiyatda xodimlarning huquqiy madaniyatini  
oshirish borasida birqancha ishlar olib borilishi lozimligini, jumladan qonun ustuvorligi  
bo'yicha barcha xodimlarga qonunlarning mazmun moxiyati bo'yicha tushuntirish ishlari  
olib borish dolzarb masala bo'lib turganligini aytib, so'zni “INVESTMENT AND  
CAPITAL MANAGEMENT” MCHJ vakili G.P.Tursunovga berdi.**

Ular so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-81-sun Qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi

PF-6013-son Farmoni va “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiya va unga qarshi kurashish usullari, Jamiyati komplayens-nazorat tizimini to‘g‘risidagi mazmun moxiyati yuzasidan yig‘ilish qatnashchilariga tushunchalar berdi, xodimlar tomonidan o‘z vazifalarini bajarish chog‘ida ta‘magirlilik, poraxo‘rlik kabi illatlarga yo‘l qo‘ymaslik, uni oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan raxbar xodimlar tomonidan jamoatchilik nazoratini olib borish kuchaytirilishini ta‘kidlab o‘tdi.

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiya va unga qarshi kurashish usullari, Jamiyati komplayens-nazorat tizimida korrupsiyaning xavf-xatarlarini taxlil qilish va axolining keng qatlamlarini xabardor qilib huquqiy ongini oshirish, ommaviy axborot vositalari orqali tashviqot ishlarini olib borilishi lozimligini, Jamiyatida bunday keyin jinoyatlarning kelib chiqishini oldini olish bo‘yicha qattiq nazorat olib borilishini aytib o‘tdi.

Shuningdek, Jamiyatimiz tomonidan fuqarolarning huquq va manfaatini ko‘zlab norma ijodkorligida ko‘plab o‘zgarishlar bo‘layotganligini, ushbu o‘zgarish va qo‘shimchalarni o‘z vaqtida fuqarolarga yetkazib borilishi lozimligini ta‘kidlab, misollar keltirib o‘tdi.

Yig‘ilish davomida boshqa normativ huquqiy xujjatlarga kiritilgan o‘zgarishlar va qo‘shimchalar xaqida xam ma‘lumotlar berib o‘tdi.

Shuningdek u o‘zining xizmat vazifasini bajarish chog‘ida xayotda uchragan misollar bilan yig‘ilish qatnashchilariga korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tushuntirish ishlarini olib bordi.

Jumladan, inson xayoti davomida uchrab turadigan korruption to‘qnashuv xolati yuzaga kelganda xar bir fuqaro qarshi kurashish lozimligini, Jamiyatining rivojlanishini ortga surishi mumkinligini misollar bilan tushuntirib o‘tdi.

Yig‘ilish qatnashchilari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xamda joriy yil davomida yangi qabul qilingan qarorlar yuzasidan savol-javoblar o‘tkazilib, xodimlarning bu boradagi tushunchalari boyitildi.

Muxokamaga qo‘yilgan masalalar yuzasidan boshqa yig‘ilish qatnashchilari xam o‘z fikr-muloxazalarini bildirdilar.

Shundan so‘ng yig‘ilishning kun tartibida muxokamaga qo‘yilgan masala yuzasidan yig‘ilish

## Q A R O R Q I L D I:

1. “INVESTMENT AND CAPITAL MANAGEMENT” MCHJ vakili G‘.P.Tursunovning ma’ruzasi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamiyatining boshqaruv raisi o‘rinbosarlari xamda barcha bo‘lim boshliqlariga:

O‘zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги PQ-81-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar тўғрисида”gi PF-6013-son Farmoni va “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiya va unga qarshi kurashish usullari, Jamiyati komplayens-nazorat tizimining ijrosi (talablari) doimiy bajarib borilsin, xodimlar tomonidan o‘z vazifalarini

bajarish chog‘ida ta‘magirlik, poraxo‘rlik kabi illatlarga yo‘l qo‘ymaslik, uni oldini olish maqsadida nazorat kuchaytirilsin.

3. Muvofiqlik tizimi (komplaens) xizmati boshlig‘i v.v.b U.Raxmatov - yangi qabul qilingan qonunlar, qonunlarga kiritilayotgan o‘zgarishlar va qo‘srimchalar bo‘yicha keng jamoatchilik ishtirokida yig‘ilishlar o‘tkazilib, targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilishi ta‘minlansin. Xodimlar tomonidan sodir etilgan ta‘magirlik, poraxo‘rlik kabi jinoyat alomatlari aniqlanganda ushbu xolatlar bo‘yicha tezda huquqni muxofaza qiluvchi organlarga ma’lum qilinsin.

4. Mazkur yig‘ilish bayonining ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Kotib:**



**U. Raxmatov**